

TARJIMA NAZARIYASIDA EKVIVALENTLIK TUSHUNCHASINING  
SHAKLLANISHI VA RIVOJI

**Turg‘unova Nilufar Muhiddin qizi**

*Andijon davlat chet tillari instituti*

*Sinxron tarjima (Fransuz tili) 2-bosqich magistranti*

**Ilmiy raxbar: Anarboyeva Iroda Oripovna**

*Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası dotsenti, PhD.*

ORCID: 0009-0007-7957-2798

[anarboyevairodaxon@gmail.com](mailto:anarboyevairodaxon@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada tarjima nazariyasida muhim ilmiy kategoriyalardan biri hisoblangan ekvivalentlik tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalarining mazmuni, ularning tarjima jarayonidagi o‘rni hamda o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. V.N. Komissarov, A.D. Shveysser, L.S. Barxudarov, J. Kaftford, Q. Musaev kabi olimlarning ilmiy qarashlari asosida ekvivalentlikning nazariy talqinlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tarjima jarayonida til tizimlarining grammatik, leksik va madaniy tafovutlari tufayli yuzaga keladigan muammolar hamda ularni bartaraf etishda tarjimaviy transformatsiyalarning roli tahlil qilinadi. Maqolada ekvivalentlik darajalari va ularning tarjima sifatini baholashdagi ahamiyati ham ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *tarjima nazariyasi, ekvivalentlik, adekvatlik, tarjima jarayoni, tarjimaviy transformatsiya, tarjima sifati, kommunikativ moslik, tarjima mezonlari.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается формирование и развитие понятия эквивалентности как одной из ключевых категорий теории перевода. В исследовании анализируются содержание понятий эквивалентности и адекватности, их взаимосвязь и роль в процессе перевода. На основе научных взглядов таких ученых, как В.Н. Комиссаров, А.Д. Швейцер, Л.С. Бархударов, Дж. Кэтфорд и К. Мусаев, раскрываются теоретические подходы к пониманию эквивалентности. Также анализируются проблемы, возникающие в процессе перевода из-за грамматических, лексических и культурных различий между языками, а также роль переводческих трансформаций в их преодолении. В статье обосновывается значение уровней эквивалентности в оценке качества перевода.*

**Ключевые слова:** *теория перевода, эквивалентность, адекватность, процесс перевода, переводческие трансформации, качество перевода, коммуникативная эквивалентность, критерии перевода.*

**Abstract:** *This article examines the formation and development of the concept of equivalence as one of the key categories in translation theory. The study analyzes the content of the notions of equivalence and adequacy, their interrelation, and their role in the*

*translation process. The theoretical approaches to equivalence proposed by scholars such as V.N. Komissarov, A.D. Schweitzer, L.S. Barkhudarov, J. Catford, and Q. Musaev are discussed. The article also explores the problems arising in translation due to grammatical, lexical, and cultural differences between languages and highlights the role of translation transformations in overcoming these challenges. In addition, the levels of equivalence and their importance in evaluating translation quality are scientifically substantiated.*

**Keywords:** *translation theory, equivalence, adequacy, translation process, translation transformations, translation quality, communicative equivalence, translation criteria.*

Tarjima murakkab va ko‘p qirrali ijodiy faoliyat bo‘lib, tarjima nazariyasida uning sifatini baholash masalasi muhim ilmiy muammo sifatida keng tadqiq etiladi. Tarjima sifatini aniqlovchi asosiy mezonlar qatoriga adekvatlik va ekvivalentlik tushunchalari kiradi. V.N.Komissarov ta’kidlaganidek, tarjimon faoliyatining eng muhim vazifalaridan biri asliyat mazmunini imkon qadar to‘liq va aniq yetkazishdan iborat bo‘lib, amaliyotda asl matn bilan tarjima o‘rtasidagi mazmuniy umumiylik, odatda, sezilarli darajada saqlanadi<sup>1</sup>. Biroq til tizimlarining grammatik tuzilishi, lug‘aviy tarkibi hamda madaniy tafovutlari tufayli mutlaq aniqlikdagi tarjimaning mavjud bo‘lishi prinsipial jihatdan imkonsizdir<sup>2</sup>.

Mazkur holat tarjimada maksimal darajadagi ekvivalentlikka qanday erishish mumkinligi masalasini ochiqlashni talab etdi. V.N.Komissarov va A.D.Shveyser ekvivalentlik tushunchasini tadqiq etar ekalar, V.N.Komissarov ekvivalentlikni til va nutq birliklarining mazmuniy yaqinligi sifatida talqin qiladi<sup>3</sup>. Shu bilan birga, u “adekvat tarjima” atamasini kengroq ma’noda qo‘llab, uni muayyan sharoitlarda tillararo muloqotni to‘liq ta’minlay oladigan, ya’ni “yaxshi tarjima” tushunchasi bilan bog‘laydi<sup>4</sup>.

A.D.Shveyser ekvivalentlikni tarjima matnining asliyatga muvofiqligi sifatida belgilaydi hamda adekvatlikni tarjima jarayonining mavjud kommunikativ sharoitlarga mosligi bilan izohlaydi. Shu nuqtayi nazardan, tarjimon asliyat matnining funksional ustuvorliklarini saqlab qolish maqsadida ayrim hollarda maksimal ekvivalentlikdan voz kechib, adekvatlikni ustun qo‘yishga majbur bo‘ladi. Demak, adekvatlik mutlaq emas, balki optimal xarakterga ega bo‘lib, tarjima muayyan, ba’zan esa o‘zaro to‘liq mos kelmaydigan shart va vazifalarga imkon qadar mos kelishi lozim<sup>5</sup>.

Ana shunday “tarjima qilib bo‘lmaydigan xususiyliklar”ni bartaraf etish jarayonida tarjima amaliyotida tarjimaviy transformatsiyalardan keng foydalaniladi. Ularning tasnifini ishlab chiqishda L.S.Barxudarov muhim hissa qo‘shgan bo‘lib, tarjimaviy transformatsiyalarni manba va tarjima tillarining formal hamda semantik tizimlaridagi tafovutlarga qaramay, tarjimaning ekvivalentligi, ya’ni adekvatligini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan ko‘p sonli va sifat jihatdan rang-barang tillararo o‘zgarishlar sifatida ta’riflaydi<sup>6</sup>.

<sup>1</sup> Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высш. шк., 1990. – 253 с. 51-б.

<sup>2</sup> Казакова Т.А. Практические основы перевода «English – Russian». – Санкт-Петербург: Союз, 2008. – 319 с. 9-б

<sup>3</sup> Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высш. шк., 1990. – 253 с. 51-б.

<sup>4</sup> Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М.: ЭТС, 2001. – 424 с. 53–54-б.

<sup>5</sup> Швейцер А.Д. Теория перевода (статус, проблемы, аспекты). – М.:Наука, 1988. – 214 с. 95–96.

<sup>6</sup> Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). – М.: «Междунар. отношения», 1975 – 240 с. 190-б

U.Yo‘ldoshev ekvivalentlikni tarjima jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalardan bo‘lib, u nafaqat tarjimada muqobillik darajasini belgilashi, balki leksik birliklarni manba tildan tarjima qilinyotgan tilga ko‘chirishning muhim usullaridan biri sifatida baholaydi<sup>7</sup>. J. Abdug‘aniyev ekvivalentlik tarjimada bir qator vazifalarni bajarishi va u tarjimaning markaziy tushunchasi hisoblanib, tarjimani o‘rganishda samaradorlikni oshiradi hamda tarjima matnlarini tahlil qilishda muhim nazariy kategoriya sifatida xizmat qiladi deb ta’kidlaydi<sup>8</sup>. Ekvivalentlik sohasi til tizimining turli darajalariga mansub bo‘lgan morfemalar, leksik birliklar, so‘z birikmalari, sintaktik konstruksiyalar, frazeologik birliklar hamda terminologik birliklarni o‘z ichiga olgan holda, tarjima jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladi. J. Kaftfordning ilmiy qarashlariga ko‘ra, tarjima amaliyotida yuzaga keladigan eng dolzarb muammo tarjima tilida adekvat va funksional jihatdan mos ekvivalentlarni aniqlash masalasi bilan bog‘liqdir<sup>9</sup>. Shu nuqtai nazardan, tarjima nazariyasining ustuvor vazifasi tarjima ekvivalentligining mohiyatini ochib berish, uning tabiati va namoyon bo‘lish mexanizmlarini tizimli ravishda tavsiflashdan iboratdir.

Ekvivalentlik masalasi yuzasidan ko‘plab tadqiqotchilar o‘z ilmiy qarash va konsepsiyalarini ilgari surganlar. Ushbu masalaga murojaat etishimizga asosiy sabab matn tarkibida uchraydigan turli lisoniy vositalarning morfologik, sintaktik, leksik hamda stilistik qatlamlar doirasida manba til va tarjima tili o‘rtasida ekvivalent munosabatga ega bo‘lishi yoki bunday muqobillikning mavjud emasligi bilan bog‘liq holatlarni aniqlash zaruratidir. Tarjima jarayonida ekvivalentlik hodisasi manba tilidan tarjima tiliga o‘tish jarayonida o‘quvchi ongida asliyat mazmuniga mos va adekvat axborotni shakllantirish orqali namoyon bo‘ladi.

Tarjimaning asosiy vazifasi asliyat matni bilan tarjima matni o‘rtasida ekvivalentlik munosabatini ta’minlashdan iborat bo‘lganligi sababli, to‘laqonli tarjima sifatini baholash ikki asosiy mezon asosida amalga oshiriladi:

1. ishonchlilik va aniqlik — ya’ni asliyat matn mazmunini hech qanday qo‘shimcha kiritmasdan yoki ma’no yo‘qotilishiga yo‘l qo‘ymasdan aniq ifodalash;
2. shaffoflik — tarjima jarayonida muayyan kommunikativ maqsadni ko‘zlagan holda tarjima tilining grammatik, sintaktik hamda idiomatik me’yor va konvensiyalariga rioya etish<sup>10</sup>.

Tarjimashunos olim Quدرات Musaev o‘zining “Tarjima nazariyasi asoslari” nomli fundamental asarida ekvivalentlik tushunchasini keng qamrovda tahlil qilib, ularning tarjima jarayonidagi nazariy hamda amaliy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi. Olim asliyat va tarjima matnlari o‘rtasidagi muvofiqlik darajalarini besh turga ajratib, mazkur tasnifni aniq misollar asosida asoslab beradi<sup>11</sup>.

<sup>7</sup> Yo‘ldoshev U. Tarjimada ekvivalentlik va uning turlari // “Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalalari: tahlil, tasnif, qiyos” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023 -B.300-306.

<sup>8</sup> Abduganiyeva J.R. Consecutive Interpretation Quality Assessment Within Training Process. ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2023. – №1/7. – Б. 22-25.

<sup>9</sup> Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – Indiana: Oxford University Press, 1965. – P.21.

<sup>10</sup> Yo‘ldoshev U. Tarjimada ekvivalentlik va uning turlari // “Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalalari: tahlil, tasnif, qiyos” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023 -B.300-306.

<sup>11</sup> Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – B.54-59.

1. Ekvivalentlikning birinchi turida tarjima matnining asliyatga mosligi juda kam darajada seziladi, bunda ikki matn o‘rtasidagi munosabat yuzaki va bilvosita xarakter kasb etadi.

2. Ekvivalentlikning ikkinchi turida tarjimaning asliyatga nisbatan yaqinligi qo‘llanilgan til birliklari ma‘nolarining to‘liq mos kelmasligi bilan izohlanadi. Ushbu guruhda asliyat va tarjima matnlarini tashkil etuvchi ko‘plab leksik birliklar hamda sintaktik konstruksiyalar o‘rtasida bevosita muvofiqlik kuzatilmasa-da, mazmuniy jihatdan ular birinchi turga nisbatan ancha yaqin bo‘ladi.

3. Ekvivalentlikning uchinchi turida asliyat va tarjima matnlari orasida mazmuniy moslik saqlangan holda, ikki tilning ifoda vositalari leksik tarkib hamda ayrim hollarda sintaktik tuzilish jihatidan to‘liq uyg‘unlik kasb etmaydi.

4. Ekvivalentlikning to‘rtinchi turida esa asliyat va tarjima matnlari o‘rtasidagi munosabat ikki til leksik tarkiblarining sezilarli darajada yaqinlashuvi bilan tavsiflanadi. Bu holatda tarjimon asliyatdagi aksariyat so‘zlarga tarjima tilida mazmunan yaqin muqobillarni topishga, shuningdek, asliyat matnidagi sintaktik qurilishga mos keluvchi ifoda vositalaridan foydalanishga intiladi.

5. Ekvivalentlikning beshinchi turida asliyat va tarjima matnlari o‘rtasidagi muvofiqlik eng yuqori darajada namoyon bo‘ladi. Ushbu tur ikki til matnlarining strukturaviy jihatdan bir xilligi, leksik tarkibining to‘la mosligi hamda asliyat matnining asosiy komponentlari tarjimada to‘liq saqlanishi bilan ajralib turadi.

Olimlarning nazariyalari va ekvivalentlik tushunchasiga keltirgan talqinlari hamda mezonlari tadqiqot ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi. Mazkur tasnif esa ekvivalentlikning rivojlanishini va tarjima jarayonlarida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi: birinchi turda moslik juda yuzaki va bilvosita bo‘lsa, beshinchi turda matnlar mazmunan, leksik va sintaktik jihatdan to‘liq uyg‘unlashadi. Shu orqali ekvivalentlik tushunchasi tarjimashunoslikda nafaqat nazariy kategoriya sifatida, balki tarjimaning sifatini baholash va tahlil qilish mezoni sifatida rivojlanib borayotganligi aniq ko‘rinadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высш. шк., 1990. – 253 с. 51-б.

2. Казакова Т.А. Практические основы перевода «English – Russian». – Санкт-Петербург: Союз, 2008. – 319 с. 9-б

3. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высш. шк., 1990. – 253 с. 51-б.

4. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М.: ЭТС, 2001. –424 с. 53–54-б.

5. Швейцер А.Д. Теория перевода (статус, проблемы, аспекты). – М.:Наука, 1988. – 214 с. 95–96.

6. Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). – М.: «Междунар. отношения», 1975 – 240 с. 190-б

25-Mart, 2026-yil

7. Yo‘ldoshev U. Tarjimada ekvivalentlik va uning turlari // “Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalalari: tahlil, tasnif, qiyos” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023 -B.300-306.

8. Abduganiyeva J.R. Consecutive Interpretation Quality Assessment Within Training Process. ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2023. – №1/7. – Б. 22-25.

9. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – Indiana: Oxford University Press, 1965. – P.21.

10. Yo‘ldoshev U. Tarjimada ekvivalentlik va uning turlari // “Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalalari: tahlil, tasnif, qiyos” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2023 -B.300-306.

11. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – B.54-59.

12. Oripovna, A. I. (2025). Nominativ birliklarning kommunikativ-pragmatik tamoyillari (fransuz va o‘zbek tillari misolida). American journal of education and learning, 3(4), 265-268.

13. Oripovna, A. I. (2026). Nutqiy muloqotda bilvosita nom tanlash muammosi: semiotik-madaniyatshunoslik, sotsiolingvistik va gender jihatlari. american journal of education and learning, 4(2), 514-517.